2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘K: 630*165:581.5
JEL klassifikatsiyasi: Q23, O53, Q56

CHO‘LDA O‘RMON HOSIL QILUVCHI TURLAR HOSILDORLIGINI BAHOLASH

XAMROYEV XUSEN FATULLAYEVICH
Toshkent davlat agrar universiteti
O‘rmonchilik va landshaft dizayn kafedrasi dotsenti
E-mail: husenhamroyev3@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0274-900X

Annotatsiya. Maqolada cho‘lda o‘rmon barpo etishda foydalaniladigan qora saksovul, rixter cherkezi va qizil qandim turlarining tabiiy o‘rmon hamda o‘rmon urug‘chilik uchastkalaridagi hosildorligi bo‘yicha ma’lumot keltirib o‘tilgan. Tadqiqotlarda turlarning hosildorligi urug‘ beruvchi daraxt-butalarning ulushiga bog‘liqligi keltirib o‘tilgan bo‘lib, qora saksovulda 28,3-42,7%, rixter cherkezida 36,3-49,3%, qizil qandimda esa 53,3-71,3% daraxt-butalar hosil berganligi aniqlangan. Turlar hosildorligi qora saksovulda 194,57-794,64 kg/ga, rixter cherkezida 379,85-829,48 kg/ga, qizil qandimda 182,87-584,77 kg/ga ni tashkil etgan.
Kalit so‘zlar: o‘rmon urug‘chilik uchastkasi, qora saksovul, rixter cherkezi, qizil qandim, hosil beruvchi daraxtlar ulushi, 1 ta daraxt hosili, 1 gektardagi hosil beruvchi daraxtlar miqdori, hosildorlik.

Аннотация. В статье приведена информация о продуктивности таких видов, используемых для создания лесов в пустыне, как саксаул черный, солянка Рихтера и кандым голова медузы, как в естественных лесах, так и на посевных участках. В исследованиях отмечается, что продуктивность видов зависит от доли плодоносящих деревьев и кустарников: у черного саксаула 28,3-42,7%, у солянки Рихтера 36,3-49,3%, а у кандым голова медузы 53,3-71,3% деревьев и кустарников приносили плоды. Продуктивность видов составила: у черного саксаула 194,57-794,64 кг/га, у солянки Рихтера 379,85-829,48 кг/га, у кандым голова медузы 182,87-584,77 кг/га.
Ключевые слова: лесосеменной участок, черный саксаул, солянка Рихтера, кандым голова медузы, доля плодоносящих деревьев, урожай с 1 дерева, количество плодоносящих деревьев на 1 гектар, урожайность.

Abstract. The article provides information on the productivity of species used for creating forests in the desert, such as black saxaul, Richters' saltwort, and *Calligonium caput-medusae*, both in natural forests and on planted plots. Studies note that the productivity of the species depends on the proportion of fruit-bearing trees and shrubs: for black saxaul, it’s 28.3-42.7%, for Richters' saltwort, it’s 36.3-49.3%, and for *Calligonium caput-medusae*, 53.3-71.3% of trees and shrubs bore fruit. The species’ productivity amounted to: black saxaul 194.57-794.64 kg/ha, Richters' saltwort 379.85-829.48 kg/ha, and *Calligonium caput-medusae* 182.87-584.77 kg/ha.
Keywords: seed forest plot, black saxaul, Richters' saltwort, *Calligonium caput-medusae*, proportion of fruit-bearing trees, yield per tree, number of fruit-bearing trees per hectare, productivity.

KIRISH

Cho‘l hududlarida 30 turga yaqin daraxt va butalar o‘sadi bular asosan kserofit butalar yoki kichik hajmdagi daraxtlardir. Lekin, shunga qaramasdan, cho‘l o‘rmonlari katta ahamiyatga molik bo‘lgan tuproqni himoyalash, ko‘chma qum massalarini ushlab qolish kabi muhim xalq xo‘jalik vazifalarini bajaradi. Daraxtsimon o‘simliklar poyalari shamol kuchini pasaytiradi. Cho‘l o‘rmonlarini hosil qiluvchi daraxt va buta turlari qora saksovul, oq saksovul, qandim, sho‘ralar va yulg‘unlar tashkil qiladi. Ko‘plab ildizlari esa qumni to‘xtatib, unda o‘t

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

o‘simliklar o‘sishiga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, madaniy vohalarga qum kirib kelishini oldini oladi. O‘simliklar o‘sib turgan yerlar mikroiqlimiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Cho‘l hududida o‘rmon hosil qiluvchi turlarning hosildorligini aniqlash bo‘yicha ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, turning biologik xususiyatlari, iqlim sharoiti va daraxtzor to‘liqligi urug‘ mahsuldorligiga ta’sir etishi qayd etib o‘tilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

A.V.Gvozdikov (1966) qora saksovul daraxtining hosildorligi daraxtzor to‘liqligi, shox-shabba diametri, mahsuldorligi va o‘sish sharoiti (daraxtzor o‘rtasi yoki cheti, siyrak yoki sayhonlik, to‘p-to‘p yoki alohida) bilan bog‘liqligini keltirib o‘tgan. Olimning ta’kidlashicha, shox-shabba diametri, sayhonlikdagi yoki siyrak daraxtzordagi daraxtlar sonining ortishi bilan urug‘ hosildorligi ham ortib boradi. Siyrak daraxtzorlarda hatt hosilsiz yillarda ham alohida o‘sgan bitta daraxtdan 135-370 g gacha hosil olish mumkin bo‘ladi.

V.L.Leontev (1954)., N.E.Koksharova, Ye.S.Aleksandrovskiy (1975)., S.P.Ratkovskiy (1973) lar tomonidan yosh daraxtzorlarning hosildorligi yuqori bo‘lishi aniqlangan. Ularning ma’lumotiga ko‘ra, o‘rta va yuqori mahsuldorli daraxtzordagi 6-10 yoshli daraxtdan 300-500 g, 15-18 yoshli daraxtdan esa 1000-1500 g hosil olish mumkin bo‘ladi. V.L.Leontev (1954), Ye.S.Aleksandrovskiy (1973) tomonidan 13-18 yoshli daraxtdan maksimal 2,0-2,5 kg dan 10 kg gacha olinganligi qayd etib o‘tilgan. 20 yoshdan katta daraxtlarning hosildorligi o‘rta yoshli daraxtlarga nisbatan 2,0-2,5 marta kam bo‘lishi ham keltirib o‘tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Plyusli daraxtzorlarda urug‘ yig‘ish olish uchun mos bo‘lgan daraxtlar soni 70% dan ortiq bo‘lishi kerak. Plyusli daraxtzorlar har qanday maydonda alohida bo‘laklarga ajratilgan holatda bo‘lishi mumkin.

Minusli daraxtzorlar yoki daraxtlarga barcha yetarlicha rivojlanmagan, zararlangan, kasal, kuchli singan daraxtlar kiradi. Ularning o‘rtacha diametri odatda normal daraxtlar o‘rtacha diametridan 30% ga kam bo‘ladi. Meva beruvchi daraxtlar soni 30% dan kam va hosili past bo‘ladi. Minusli navlardan urug‘ yig‘ib olish taqiqlanadi.

Normal daraxtlar yoki daraxtzorlarga umumiy rivojlanish va hosildorlik bo‘yicha o‘rtacha yoki yaxshi bo‘lgan o‘simliklarning asosiy qismi kiradi. Ularda kamida 50% meva beruvchi daraxtlar bo‘lishi kerak. To‘liqlik yuqori bo‘lgan maydonlarda siyraklashtirish amalga oshirilishi mumkin (15% dan oshmagan holatda).


TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Tajribalarni olib borish davomida nazorat va o‘rmon urug‘chilik uchastkalaridagi daraxtlarning barchasi ham hosil bermasligi ya’ni hosil berish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

davomiyligi daraxtlar bo‘yicha almashinib turishi aniqlandi. Tajribalarimiz davomida qora saksovul daraxtzorlarida umumiy daraxtlarning 28-44% ni hosil beruvchi daraxtlarni tashkil etishi aniqlandi (1-rasm).

Qora saksovulning hosil beruvchi daraxtlarining yillar davomida ham o‘zgarib turdi. 2024 yilda hosil beruvchi daraxtlar ulushi 2023 va 2025 yildagi ko‘rsatkichdan nazorat variantiga nisbatan 12-16%, boshqa variantlarga nisbatan esa 2-3% ga yuqori bo‘ldi. Hosil beruvchi daraxtlarning o‘rtacha ulushi nazorat variantlarida 28,3-30,7% bo‘lgan bo‘lsa, tajriba variantlarida 38,7-42,7% ga teng bo‘ldi (1-rasm).



1-rasm. O‘rmon daraxtzorlarida qora saksovul hosil beruvchi daraxtlari ulushining yillar bo‘yicha o‘zgarishi, % (2023-2025 yillar)

Hosil beruvchi daraxtlar ulushining yillar davomida o‘zgarib turishi qora saksovul daraxtzorlaridagi hosildorlikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Tajribalarda nazorat variant sifatida olingan maydondagi bir tup daraxtning hosili 2023-yilda 1,34-1,58 kg, 2024 yilda 1,72-2,16 kg va 2025 yilda 1,56-1,72 kg bo‘lgan bo‘lsa, o‘rmon urug‘chilik uchastkalarida 2023 yilda 2,56-4,02 kg, 2024 yilda 2,78-5,16 kg, 2025 yilda esa 2,66-4,26 kg ga teng bo‘ldi. 1 tupdagi hosil Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligida tashkil etilgan O‘UU da nazorat variantidan 2023 yilda 1,22-1,4 kg, 2024 yilda 1,06-1,46 kg, 2025 yilda 1,1-1,2 kg ga ortiq bo‘lgan bo‘lsa, Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan o‘rmon xo‘jaligida tashkil etilgan O‘UU da

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

2023 yilda 1,14-2,06 kg, 2024 yilda 0,96-2,06 kg, 2025 yilda esa 1,17-1,97 kg ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Qorako‘l tumani Shibirg‘onota ziyoratgohi hududidagi 9-O‘UU daraxtlarining hosili esa 2023 yilda 4,02 kg (vazoratdan 2,44 kg yuqori), 2024 yilda 5,16 kg (nazorat variantidan 3,0 kg yuqori), 2025 yilda 4,26 kg (nazorat variantidan 2,48 kg yuqori) teng bo‘ldi (1-jadval).

1-jadval


Tajriba maydonlaridagi qora saksovulning hosildorlik ko‘rsatkichlari, kg/ga (2023-2025 yillar)

№	Tajriba varianti	1 ta daraxt hosili, kg			1 gektardagi hosil beruvchi daraxtlar miqdori, dona			Hosildorlik, kg/ga		
		2023	2024	2025	2023	2024	2025	2023	2024	2025
1	Nazorat-1	1,34	1,72	1,56	145	155	145	194,57	266,39	226,51
2	1-O‘UU	2,67	3,28	2,76	160	169	160	428,16	553,66	442,59
3	2-O‘UU	2,74	2,96	2,68	165	174	169	451,88	513,86	453,62
4	3-O‘UU	2,56	2,78	2,66	157	166	157	402,74	460,37	418,47
5	Nazorat-2	1,58	2,16	1,78	136	141	136	215,01	304,43	242,22
6	4-O‘UU	2,84	3,12	2,95	151	159	155	428,64	495,05	456,66
7	5-O‘UU	2,72	3,13	2,96	162	175	166	441,29	546,87	492,54
8	6-O‘UU	3,64	4,22	3,75	171	180	171	623,17	758,59	642,00
9	7-O‘UU	3,16	3,38	3,29	158	162	158	497,89	546,21	518,37
10	8-O‘UU	3,18	3,29	3,18	157	165	153	498,62	541,67	486,16
11	9-O‘UU	4,02	5,16	4,26	147	154	147	590,94	794,64	626,22


1 ta daraxtdagi hosil va hosil beruvchi daraxtlar ulushining o‘zgarishi natijasida 1 gektar maydondan olinadigan hosilning ham o‘zgarishiga olib keldi. Tajribalarda nazorat variantidagi hosildorlik 194,57-304,43 kg/ga (1,95-3,04 s/ga) bo‘lgan bo‘lsa, O‘UU larida ushbu ko‘rsatkich 428,16-794,64 kg/ga (4,28-7,95 s/ga) ni tashkil etdi. Hosildorlik ham yillar mobaynida o‘zgarib turdi. O‘UU dagi hosildorlik 2023 yilda 402,74-590,94 kg/ga, 2024 yilda 460,37-794,64 kg/ga, 2025 yilda 418,47-626,22 kg/ga ni tashkil etdi. O‘UU dagi hosildorlik nazorat variantidan 2023 yilda 187,73-396,37 kg/ga yoki 1,87-3,04 marta, 2024 yilda 156,06-528,25 kg/ga yoki 1,51-2,76 marta, 2025 yilda esa 176,25-399,71 kg/ga yoki 1,72-2,76 marta yuqori bo‘ldi (1-jadval).

Qora saksovulning o‘rtacha hosildorligi nazorat variantlarida 2,29-2,54 s/ga bo‘lgan bo‘lsa, O‘UU larida 4,27-6,75 s/ga ni tashkil etdi. O‘UU bo‘yicha yuqori hosildorlik Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligida tashkil etilgan 6-O‘UU (6,75 s/ga) va Qorako‘l tumani hududidagi Shibirg‘onota ziyoratgohi maydonida tashkil etilgan 9-O‘UU (6,71 s/ga) da aniqlandi. (2-rasm).

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245



2-rasm. O‘rmon urug‘chilik uchastkasi va tabiiy holda o‘sayotgan qora saksovul daraxtzorlarining hosildorligi, s/ga (2023-2025 yillar)



3-rasm. O‘rmon daraxtzorlarida rixter cherkezi hosil beruvchi daraxtlari ulushining yillar bo‘yicha o‘zgarishi, % (2023-2025 yillar)

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Tajribalarimiz davomida rixter cherkezi daraxtzorlarida ham umumiy daraxtlarning 35-52% ni hosil beruvchi daraxtlarni tashkil etishi aniqlandi. Rixter cherkezida ham hosil beruvchi daraxtlarining yillar davomida ham o‘zgarib turdi. 2024 yilda hosil beruvchi daraxtlar ulushi 2023 va 2025 yildagi ko‘rsatkichdan nazorat variantiga nisbatan 8-14%, boshqa variantlarga nisbatan esa 2-5% ga yuqori bo‘ldi. Hosil beruvchi daraxtlarning o‘rtacha ulushi nazorat variantlarida 36,3% bo‘lgan bo‘lsa, tajriba variantlarida 44,0-49,3% ga teng bo‘ldi (3-rasm).

Hosil beruvchi daraxtlar ulushining yillar davomida o‘zgarib turishi rixter cherkezi daraxtzorlaridagi hosildorlikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Tajribalarda nazorat variant sifatida olingan maydondagi bir tup daraxtning hosili 2023-yilda 2,28 kg, 2024 yilda 2,38 kg va 2025 yilda 2,32 kg bo‘lgan bo‘lsa, o‘rmon urug‘chilik uchastkalarida 2023 yilda 2,78-3,12 kg, 2024 yilda 3,44-3,78 kg, 2025 yilda esa 2,98-3,26 kg ga teng bo‘ldi. Qorako‘l davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida rixter cherkezining O‘UU tashkil etilmadi. Bir tupdagi hosil bo‘yicha 4-O‘UU maydonlaridagi daraxtlar hosili nazorat variantidan 0,84-1,4 kg, boshqa variantlardan esa 0,28-0,34 kg ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Tajriba maydonlaridagi rixter cherkezining hosildorlik ko‘rsatkichlari, kg/ga (2023-2025 yillar)

№	Tajriba varianti	1 ta daraxt hosili, kg			1 gektardagi hosil beruvchi daraxtlar miqdori, dona			Hosildorlik, kg/ga		
		2023	2024	2025	2023	2024	2025	2023	2024	2025
1	Nazorat-1	2,28	2,38	2,32	167	181	171	379,85	430,49	396,72
2	1-O‘UU	2,78	3,44	2,98	195	213	204	541,77	734,23	607,92
3	2-O‘UU	2,86	3,57	3,06	183	200	191	523,49	712,86	612,0
4	3-O‘UU	2,98	3,69	3,17	192	209	201	572,99	771,21	662,53
5	4-O‘UU	3,12	3,78	3,26	198	219	207	618,82	829,48	674,82


1 ta daraxtdagi hosil va hosil beruvchi daraxtlar ulushining o‘zgarishi rixter cherkezi daraxtzorlarining 1 gektar maydonidan olinadigan hosilning ham o‘zgarishiga olib keldi. Tajribalarda nazorat variantidagi hosildorlik 379,85-430,49 kg/ga (3,8-4,3 s/ga) bo‘lgan bo‘lsa, O‘UU larida ushbu ko‘rsatkich 523,49-829,48 kg/ga (5,23-8,29 s/ga) ni tashkil etdi. Yillar davomidagi iqlim omillarining o‘zgarishi rixter cherkezi daraxtzorlaridagi hosildorlikning ham o‘zgarib turishiga sabab bo‘ldi. Rixter cherkezi daraxtzorlaridagi hosildorlik 2023 yilda nazorat variantida 379,85 kg/ga, O‘UU larida 523,49-618,82 kg/ga, 2024 yilda nazorat variantida 430,49 kg/ga, O‘UU larida 712,86-829,48 kg/ga, 2025 yilda esa nazorat variantida 396,72 kg/ga, O‘UU larida 607,92-674,82 kg/ga ni tashkil etdi. O‘UU dagi hosildorlik nazorat variantidan 2023 yilda 144,64-203,97 kg/ga yoki 1,38-1,63 marta, 2024 yilda 282,87-399,99 kg/ga yoki 1,66-1,93 marta, 2025 yilda esa 211,2-278,1 kg/ga yoki 1,53-1,7 marta yuqori bo‘ldi (2-jadval).

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Rixter cherkezining o‘rtacha hosildorligi nazorat variantida 3,27 s/ga bo‘lgan bo‘lsa, O‘UU larida 4,76-5,26 s/ga ni tashkil etdi. O‘UU bo‘yicha yuqori hosildorlik Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligida tashkil etilgan 4-O‘UU aniqlanib, undagi hosildorlik o‘rtacha 5,26 s/ga ni tashkil etdi. (5-rasm).

Tajribalarimizda qizil qandim daraxtzorlaridagi hosil beruvchi daraxtlarning ulushi qora saksovul va rixter cherkezi daraxtzorlaridagi ko‘rsatkichlardan yuqoriligi yoki 52-76% ni tashkil etishi aniqlandi. (4-rasm).

Qizil qandimda ham hosil beruvchi butalarining yillar davomida ham o‘zgarib turdi. 2024 yilda hosil beruvchi daraxtlar ulushi 2023 va 2025 yildagi ko‘rsatkichdan nazorat variantiga nisbatan 8-24%, boshqa variantlarga nisbatan esa 2-12% ga yuqori bo‘ldi. Hosil beruvchi daraxtlarning o‘rtacha ulushi nazorat variantlarida 53,3% bo‘lgan bo‘lsa, tajriba variantlarida 67,0-71,3% ga teng bo‘ldi (4-rasm).



4-rasm. O‘rmon urug‘chilik uchastkalarida o‘sayotgan qizil qandim hosildor daraxtlari ulushining yillar bo‘yicha taqsimlanishi, % (2023-2025 yillar)


Hosil beruvchi daraxtlar ulushining yillar davomida o‘zgarib turishi qizil qandim daraxtzorlaridagi hosildorlikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Tajribalarda nazorat variant sifatida olingan maydondagi bir tup daraxtning hosili 2023-yilda 1,68 kg, 2024 yilda 1,76 kg va 2025 yilda 1,72 kg bo‘lgan bo‘lsa, o‘rmon urug‘chilik uchastkalarida 2023 yilda 1,86-2,08 kg, 2024 yilda 2,08-2,29 kg, 2025 yilda esa 1,94-2,14 kg ga teng bo‘ldi. Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligi hududida qizil qandimning O‘UU tashkil etilmadi. Bir tupdagi hosil bo‘yicha 3-O‘UU maydonlaridagi butalar hosili nazorat variantidan 0,32-0,61 kg, boshqa variantlardan esa 0,15-0,43 kg ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi (3-jadval).

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

3-jadval

Tajriba maydonlaridagi qizil qandimning hosildorlik ko‘rsatkichlari, kg/ga (2023-2025 yillar)

№	Tajriba varianti	1 ta daraxt hosili, kg			1 gektardagi hosil beruvchi daraxtlar miqdori, dona			Hosildorlik, kg/ga		
		2023	2024	2025	2023	2024	2025	2023	2024	2025
1	Nazorat-1	1,68	1,76	1,72	112	120	112	187,82	211,90	192,30
2	1-O‘UU	1,86	2,08	1,94	205	230	208	380,93	479,23	403,52
3	2-O‘UU	1,96	2,18	2,09	226	253	229	442,41	551,71	478,90
4	3-O‘UU	2,08	2,29	2,14	228	255	235	475,24	584,77	503,33



5-rasm. O‘rmon urug‘chilik uchastkasida va tabiiy o‘sayotgan rixter cherkezi va qizilqandim daraxtzorlarining hosildorligi, s/ga (2023-2025 yy.)

1 ta daraxtdagi hosil va hosil beruvchi daraxtlar ulushining o‘zgarishi qizil qandim daraxtzorlarining 1 gektar maydonidan olinadigan hosilning ham o‘zgarishiga olib keldi. Tajribalarda nazorat variantidagi hosildorlik 187,82-211,9 kg/ga (1,88-2,12 s/ga) bo‘lgan bo‘lsa, O‘UU larida ushbu ko‘rsatkich 380,93-584,77 kg/ga (3,81-5,85 s/ga) ni tashkil etdi. Yillar davomidagi iqlim omillarining o‘zgarishi qizilqandim daraxtzorlaridagi hosildorlikning ham o‘zgarib turishiga sabab bo‘ldi. Qizil qandim daraxtzorlaridagi hosildorlik 2023 yilda nazorat variantida 187,82 kg/ga, O‘UU larida 380,93-475,24 kg/ga, 2024 yilda nazorat variantida 211,9 kg/ga, O‘UU larida 479,23-584,77 kg/ga, 2025 yilda esa nazorat variantida 192,3 kg/ga, O‘UU larida 403,52-503,33 kg/ga ni tashkil etdi. O‘UU dagi hosildorlik nazorat variantidan 2023 yilda

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

193,11-288,42 kg/ga yoki 2,03-2,53 marta, 2024 yilda 267,33-372,87 kg/ga yoki 2,26-2,76 marta, 2025 yilda esa 211,22-311,03 kg/ga yoki 2,1-2,62 marta yuqori bo‘ldi (3-jadval).

Qizil qandimning o‘rtacha hosildorligi nazorat variantida 1,97 s/ga bo‘lgan bo‘lsa, O‘UU larida 4,21-5,21 s/ga ni tashkil etdi. O‘UU bo‘yicha yuqori hosildorlik Jondor ko‘chatchilikka ixtissoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligida tashkil etilgan 3-O‘UU aniqlanib, undagi hosildorlik o‘rtacha 5,21 s/ga ni tashkil etdi. (5-rasmga qarang).

XULOSA

Cho‘lda o‘rmon hosil qiluvchi turlarning urug‘chiligi rivojlantirish uchun urug‘ terib olinadigan o‘rmon urug‘chilik uchastkalarini tashkil etish muhim hisoblanidi. Urug‘chilik uchastkalarini tashkil etish maqsadida Qorako‘l, Jondor va Romitan tumanlarida hududida joylashgan daraxtzorlarda qora saksovulning 9 ta, rixter cherkezining 4 ta, qizilqandimning esa 3 ta maydoni ajratib olindi. Ushbu uchastkalardagi daraxt-butalarning soni qora saksovulda 350-434 dona, rixter cherkezida 416-464 dona, qizil qandimda esa 416-474 donani tashkil etdi. O‘rmon urug‘chilik uchastkalaridagi hosildorlik qora saksovulda 402,74-794,64 kg/ga, rixter cherkezida 523,49-829,48 kg/ga, qizilqandimda 380,93-584,77 kg/ga ni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Александровский Е. С. К изучению биологии плодоношения саксаула черного // Сборник научных трудов Среднеазиатского научно-исследовательского института лесного хозяйства. — 1973. — Вып. 15. — С. 58–73.

2. Гвоздиков А. В. Некоторые вопросы теории и практики закрепления и облесения песков Средней Азии : автореф. дис. ... д-ра с.-х. наук. — Ташкент, 1966. — 82 с.

3. Леонтьев В. Л. Саксауловые леса пустыни Кара-Кум. — М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1954.

4. Кокшарова Н. Е., Александровский Е. С. Рекомендации по повышению урожайности и качества семян саксаула черного и черкеза. — Ташкент, 1975. — 16 с.

5. Новицкий, З. Б. (2018). Облесение засоленных почвогрунтов на осушенном дне Арала. Сельское хозяйство Узбекистана. № 8. С. 33.

6. Novitskiy, Z. B. (2012). Phytomelioration in the Southern Aralkum. In Breckle SW., Wucherer W., Dimeyeva L., Ogar N. (Eds.), Aralkum – a Man-Made Desert. Ecological Studies (Analysis and Synthesis), 218. Springer, Berlin, Heidelberg. https://doi.org/10.1007/978-3-642-21117-1_16

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy